

MAVLONO LUTFULLOX CHUSTIY MA'NAVIY MERO SINING TARBIYAVIY AXAMYATI

Ilmiy rahbar: Samatov X. U.

Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Samarqand filiali

Boliyev Ravshan

AX23-08 guruh talabasi

Annotatsiya:

ushbu maqolada naqshbandiylik tariqatining mashhur namoyandasasi Mavlono Lutfullox Chustiyning ma'naviy merosi va tarbiyaviy ahamyatga ega bo'lgan hayot yo'li yoritilgan.

Kalit so'zlar: Islom, din, luqmon, ma'rifat, ilm-fan, borliq, yassaviya, tasavvuf, oxirat.

Buyuk bobokalonlarimiz Islom dini ko'rsatmalariga og'ishmay amal qilib yashagan paytlarida har sohada butun olamga ustoz bo'lishgan. Yuqorida aytganimiz Islom diniga qo'shgan xizmatlarini soni yo'q, sanog'i yo'q, haddi yo'q hisobi yo'q. Shu bilan bir qatorda boshqa ilmlarda ham peshqadam bo'lganlar. Kimyo ilmi, Falakiyot, Matematika, Tibbiyot, Fizika va hakzo. Xususan dorishunslik sohasiga ham salmoqli hissa qo'shganlar¹.

Mavlono Lutfulloh Chustiy milodiy 1487-yilda Farg'ona vodiysining Axkent mavzesidan 20-25 km g'arbda joylashgan Chodak qishlog'ida dunyoga kelgan. Otalari Mavlono Fathullox yassaviya shayxlaridan bo'lganini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. "Manoqibi Mavlono Lutfulloh Chustiy" asarida keltirgan ma'lumotga ko'ra, Xoja Fathullox Qur'oni Karim tilovati bilan mashg'ul bo'lib o'tirganlarida tug'ulajak farzandiga Lutfulloh diya ism qo'yishlarini dillarida o'tkazadilar. Onalari yosh go'dakka biror marta ham tahiratsiz ko'krak tutmagan ekanlar. Lutfulloh besh yoshga to'lganda uni maktabga beradilar va yeti yoshida Qur'oni to'la yod oladi. O'n uch yoshgacha otalari qo'lida tehsil oladi. O'sha paytda Chodak madrasasi vodiyyda nufuzli ilm dargohi edi. MAvlono Lutfulloh madrasada yirik ulamoladan tafsir, hadis, fiqh, ilmlarini o'rganadi. Ayrim manbalarda Mavlona Lutfulloh Marg'ilonlik alloma, Xoja Ahror Valiyning sevimli shogirdlari bo'lmish Shoh

¹ <https://www.mirarab.uz/ruknlar/1423>



Husayn Chorkuhiy huzurida ‘‘Hidoya’’ va boshqa islomiy bilimlar bilan bir qatorda dehqonchilik, miroblik, ziroat ilmlarini ham puxta eganlaganligi keltiriladi².

Lutfullohga Maxdumi A’zamning istagi bilan «Farg’ona va Toshkentdagi barcha naqshbandiylik birodarlari» ishonib topshirilgan. Lutfulloh bir necha marta yashash joyini o’zgartirgan. O’zining aytishicha, «Qishloq axlining fitnasi oqibatida» ko’chishga majbur bo’lgan. Oxiri Chustga kelib, muqim bo’lib qoladi. Bu yerda dehqonchilik bilan tirikchilik o’tkazadi. U Shayboniylar orasida nufuz orttirishga muvaffaq bo’ladi. Shu bois o’sha davrda davlatdagi ko’pgina ichki nizolarni bartaraf etishga, saroydagi ayrim bek va amirlarning g’ayriqonuniy xatti-harakatlarini cheklab qo’yishga erishdi. Movarounnahrda kubroviylik tariqati yoyilgan bo’lib, Lutfulloh uning vakillarini ko’p marta Rofiziylirk (islom yo’lidan chetga chiqish)da aybladi. Lutfullohning izdoshlari ko’p edi. Ular Toshkent, Farg’onadan tashqari, Hisor xamda Movarounnahrning boshqa chekka viloyatlarida 20-asrning boshlariga qadar faoliyat ko’rsatgan. Lutfullohning ijodiy merosi haqida ma’lumotlar kam. Manoqiblarda uning o’z o’quvchilariga tanbeh tarzida yozilgan 2 ta kichik risolasi tilga olinadi. Lutfullohning qabri qayerdaligi aniq emas. Ba’zi manbalarda u Chustga (bu yerda uning maqbarasi bor), boshqa manbalarda Hisorga dafn etilgan deyiladi.

MAVLO (ko’plikda - mavoli) - 1) rahnamo, homiy, janob (Kur’onda Alloh haqida: 3:150/ 143; 8:40/41 va b., odatda mavlono - "bizning janob", "xojamiz" shaklida); 2) homiylikdagi shaxs, ko’pincha ozod etilgandan so’ng xojasi yoki uning merosxo’rlariga ma’lum darajada qaramlik rishtalarini saklab qolgan qul; uning zimmasiga sobiq xojalariga yordamlashish yoki ularni himoya qilishdek ma’naviy majburiyat yuklatilgan, u uylanmoqchi bo’lsa, ularning roziligini olishi lozim bo’lgan, bevosita merosxo’rlari bo’lmagan takdirda uning mol-mulki xo’jayiniga o’tgan. Islom futuhotlaridan so’ng tobe etilgan viloyatlarning arab bo’lmagan aholisi M. deb atala boshlandi, bu aholi go’yo arablar himoyasi ostiga olingan deb hisoblana boshlandi. Umaviylar davrida arab bo’lmagan mavolilar salmoqli ijtimoiy tabaqani tashkil etib, ko’pgina ommaviy harakatlarda, xususan, abbosiyalar davridagi harakatlarda katta rol o’ynaganlar. Shu davrda qaramlikning ikki asosiy shakli ko’zga tashlanadi: shaxsly (homiy-xo’jayindan) va guruhiy (qachonki M. to’la huquqli bo’lmagan a’zo sifatida qabilaga qo’shilsa), bu shakl haligacha o’rganilmagan. Xuroson qo’shinida 7 ming kishidan tashkil topgan Mlarning maxsus otryadi mavjud bo’lgani alohida holat bo’lib, ular maosh va yegulik

² <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-mufti-ohangoroniy-mavlono-lurfulloh-manoqibi.html>



olmasalar-da, arablar b-n bir qatorda harbiy harakatlarda ishtirok etishgan, shu b-n bir qatorda boshqa M.lar o‘zlarining homiylari b-n birga jang qilganlar. Umar II davrida ularning huquklarini boshqa jangchilar b-n tenglashtirishga urinib ko‘rilgan. Abbosiylar davlat to‘ntarishidan keyin, barcha muslimmonlar - arablar va arab bo‘lmanlar teng huquqqa ega bo‘ldilar. Shundan so‘ng guruhiy qaramlik yo‘q bo‘lgan bo‘lsa kerak va M. alohida ijtimoiy guruh sifatida ahamiyatini yo‘qotadi. M. arab va xalifalik hududidagi mahalliy madaniyatlar b-n uyg‘unlashuvi asosida o‘rta asr muslimmon madaniyatini shakllanishida katta rol o‘ynadilar. Musulmon ilohiyoti va hukuqining ko‘pgana namoyondalari M.lardan chiqqan (Abu Hanifa, an-Naxa’iy va b.). 10-13-a.larda ayrim hokimlar unvonida uchraydigan mavlo amir al-mo‘minin yoki falonchining M.si kabi iboralar ko‘p hollarda faqat tobelikni izhor etishni anglatgan³.

LUQMON (as) - Qur’onda tilga olingan donishmand (31-“Luqmon” surasi). L. (as)ning payg‘ambar ekani haqida rivoyat mavjud. Nakd qilishlaricha, L. (as) ming yil umr ko‘rgan bo‘lib, Alloh u zotga narsa va voqeа-hodisalarning mohiyat-haqiqatiga bexato yetish va eng to‘g‘ri hukm chiqara olish ne’matini, ya’ni hikmatni ato etgan ekan. Qur’onda L. (as)ning o‘g‘liga qilgan pand-nasihatları (Allohga shirk keltirmaslik, yaxshi amallar qilish, namoz o‘qish, sabr-toqatli bo‘lish, kibr-havoli, maqtanchoq bo‘lmaslik kabilar) keltiriladi. L. (as) haqida rivoyatlar ko‘p. Shulardan biriga ko‘ra, L. (as) Od qavmidan bo‘lib, uni L. (as) ibn Od deb atashgan. Rivoyatlarda aytilishicha, Arabistonda yashagan ana shu xalq Allohning g‘azabiga uchrab kurg‘oqchilikka duchor bo‘ladi. Xalq bu ofatdan qutulish maqsadida o‘z vakillarini Makkaga yomgar so‘rab, duo qilish uchun yuboradi. Ularga L. (as) boshliq bo‘ladi, lekin u Allohdan o‘ziga uzоq umr so‘raydi. Alloh L. (as)ga yettita burgut umriga teng keladigan umr ato etadi. O’rta Osiyo xalqlari orasida L. (as) buyuk hakim, dono, bilimdon inson timsoli sifatida mashhur bo‘lgan⁴.

Shundan so‘ng Mavlono Lutfulloh ilm talabida Samarqandga yo‘l oladi. Uning Samarqandda necha yil tahsil olgani manbalarda aniq ko‘rsatilmagan. Lekin Xoja Ahror Valiyning xalifasi Xoja Muhammad Qozi huzurida olti yil tarbiyalangani aytiladi. Xoji Muhammad Qozi vafot etgach, naqshbandiylik tariqati rahnamoligi u kishining iqtidorli goshirdi, atoqli alloma Shayx Maxdumi A’zam Xojagi Ahmad Kosoniya o’tadi. Mavlono Lutfulloh u zotga bay’at qilib qo‘l beradi. Mavlono Lutfulloh o‘zidagi kuchli quvvai hofiza, teran aql, chiroyli husni xulq sabab ustozni

³ <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=767.445;wap>

⁴ <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=767.445;wap>



Maxdumi A'zamga nafaqat suyukli shogird, balki qadrdon farzandidek bo'lib qoladi. Hattoki Maxdumi A'zam sevimli shogirdiga o'z qizini berib, kuyov qilishni niyat qiladi. Ammo taqdir taqozosi bilan Mavlono Lutfulloh Farg'onadagi Qozi Maxdum Chodakiyning qiziga uylanadi. Mavlono Lutfulloh bundan xijolat bo'lib, birmuncha vaqt ustoziga ro'baro' bo'lishga iymanib yuradi. Ammo bu holat uzoq davom etmaydi, ustoz va shogird munosabatlari tiklanadi. Keyinchalik Mavlono Lutfulloh ustozining kichik o'g'li Xoja Ishoq Valiyni shogird qilib oladi va unga kichik qizi Bibi Niqoyani turmushga berib, ustozining orzusini ro'yobga chiqaradi⁵. Noma'lum sabablarga ko'ra Mavlono Lutfulloh bir necha marta yashash joyini o'zgartirgan. O'zining aytishicha, fitnalar oqibatida ko'chishga majbur bo'lgan. Chodakdan so'ng Zuburqon (Chust tumanidagi Zvutqand qishlog'i), Karniyon (Chust tumanidagi Karnon qishlog'i)da yashaydi. Oxiri Chustga kelib, muqim bo'lib qoladi. Shu yerda o'ziga qarashli yer maydonlarida dehqonchilik qilib, tirikchilik o'tkazadi.

Maxdumi A'zam Kosoniy irshod ijozatnomasini yozib, o'zidan keyin suluk boshqaruvini Mavlono Lutfullohga topshiradi. "Manoqib"da Mavlono Lutfullohnинг Maxdumi A'zam Kosoniy mulozamatida uch yil bo'lgani aytildi. Maxmudi A'zam Xojagi Ahmad Kosoniy Mavlono Lutfullohga pirlik hassasini bergach, o'n besh kundan so'ng dunyodan ko'z yumadi.

Maxdumi A'zam Kosoniy vafotidan keyin Mavlono Lutfulloh naqshbandiya tariqatining rahnamosi sifatida insonlarga ilmu-hikmat, irfon tarqatishga kirishadi. "Manoqib"da keltirilishicha, Mavlono Lutfullohnинг nufuzi mintaqada yuksak bo'lgan. Xususan, uning Toshkent, Farg'ona vodiysi, Hisor, Afg'oniston hududlaridagi ta'siri katta bo'lgan⁶.

Mavlono Lutfulloh tariqat asosini o'tmish xojagonlar yo'lidan borib, Qur'on va Sunnat ta'limotlari ustiga quradi. "Manoqib"da keltirilishicha, Mavlono yashagan davrda ko'plab boshqa tariqat rahnamolari o'rtasida kelishmovchiliklar bo'lib turgan. Bunday fitna va kelishmovchiliklar Mavlono Lutfullohga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Mavlono Lutfulloh davom ettirgan suluk o'zining Qur'on va Sunnat ta'limotlariga muvofiqligi hamda mo'tadilligi bilan ajralib turgan. "Manoqib"da Mavlono Lutfullohnинг tariqat yo'li, ibodatlari, karomatlari hamda hikmatli so'zлari bayon qilingan.

⁵ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-mufti-ohangoroniy-mavlono-lurfulloh-manoqibi.html>

⁶ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-mufti-ohangoroniy-mavlono-lurfulloh-manoqibi.html>

Mavlono aytardilar: ‘Bizning tariqatimizda bo’lib, oxirat talabida bo’lsalar, albatta najot topadilar’.

Soliklar vaqtlarini Alloh ibodati bilan o’z himmatu-g’ayratlarini esa xayrli ishlarga sarf qilish bilan o’tkazmoqliklarini hamda g’aflatda qolmasliklarini Qur’on oyati mazmuni bilan buyurib, nafs xohishi bilan zalolatga ketmasliklarini ta’kidlardilar.

Xulosa qilib aytganda Lutfulloh bin Fathulloh Chusti, o’qituvchi bo’lib o’zining ilmiy va tarbiyaviy faoliyati bilan taninadi. Uning o’qitish usullari talabalarga bilim o’rgatishda yaratuvchi va samarali bo’ladi. Lutfulloh bin Fathulloh Chusti, o’quvchilarni ilm-fan yo’nalishida rag’batlantirish uchun motivatsiya o’stiradi. Uning ijodiy faoliyati o’qituvchilikning yanada rivojlanishiga olib keladi. Lutfulloh bin Fathulloh Chusti, o’qitish jarayonida interaktiv usullardan foydalanishga e’tibor beradi. Lutfulloh bin Fathulloh Chusti, o’qitish jarayonida interaktiv usullardan foydalanishga e’tibor beradi. Lutfulloh bin Fathulloh Chusti, ta’lim jarayonini o’zlashtirilgan darsliklar va ma’lumotlar bazasi asosida tashkil etadi. Uning o’qitish faoliyati talabalarda yaratıcı, kritik tasavvurlarni rivojlantirishga qaratilgan.⁷ Lutfulloh bin Fathulloh Chusti, o’quvchilarga intellektual va ijtimoiy rivojlanishlarini muvaffaqiyat bilan ta’minlaydi. Uning o’zining o’qitish metodi va ta’siri ta’lim muassasalarida yuqori natijalarni olishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muratov D., Alimov M., Karimov J. “Dinshunostlik”, darslik-Toshkent, “Navruz” nashiryoti, 2019-264 bet.
2. Rahimjonov D., Ernazarov O. “Dinshunoslikga kirish”, o’quv qo’llanma – Toshkent, “O’zbekiston faylasuflar milliy jamyati” nashiryoti, 2018-304 bet.
3. <https://kh-davron.uz/> maqola: Muhammad Muftiy Ohangaroniy. Mavlono Lutfulloh Chustiy manoqibi
4. <http://old.muslim.uz/>
5. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
6. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.

⁷ <http://old.muslim.uz/>



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th January, 2024

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

7. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. *Theoretical & Applied Science*, (2), 175-179.
8. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
9. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
10. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
11. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
12. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
13. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.